

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

FEVRAL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, fevral

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 4-son (fevral, 2026-yil).– 90 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-fevral

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Turayev Ruhiddin, Safayev Sanjarbek

YER TUZISH LOYIHALARINI YURITISHDA YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZILADIGAN YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	5-9
--	-----

TARIX FANLARI

Omonova Sarvinoz, Baratova Gulzoda

ABU ALI IBN SINO –ILM FAN OSMONINING YULDUZ	10-13
---	-------

Muminov Azizbek

ILMIY TADQIQOT HAMDA GEOSIYOSIY MANFAATLAR O'RTASIDA: TURKISTONDAGI XORIJIY ILMIY EKSPEDITSİYALAR VA MUSTAMLAKACHILIK JARAYONLARI	14-17
---	-------

Darmenov Rustem

HIND-ERON DINIY AN'ANALARI KONTEKSTIDA CHIRIKRABOT MADANIYATINING DAFN MAROSIMI	18-19
---	-------

IQTISODIYOT FANLARI

Xushvaqto'v Jasur

O'ZBEKISTONDA KO'CHMAS MULK OBYEKTLARINI OMMAVIY BAHOLASH VA PROGNOZLASH MUAMMOLARI	20-25
---	-------

FILOLOGIYA FANLARI

Madiraimova Moxlaroyim

CONSONANT CLUSTERS IN ENGLISH AND THEIR ABSENCE IN UZBEK: CHALLENGES FOR LEARNERS	26-30
---	-------

Xaitbayeva Moxira

COMPARATIVE STUDY OF WORD ORDER IN UZBEK AND ENGLISH SPEECH STRUCTURE	31-34
---	-------

YURIDIK FANLAR

Мухиддинова Эльзода

НЕДОПУСТИМЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В СТАДИИ ДОЗНАНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ИХ ОСМЫСЛЕНИЕ	35-38
---	-------

PEDAGOGIKA FANLARI

Ganiyev Elyorbek

HUQUQIY KOMPETENTLIKNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	39-44
---	-------

Xabibullayev Alimardon

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA QO'SHMA TA'LIM DASTURLARINING PEDAGOGIK SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI	45-50
--	-------

Abdullayeva Asila

FALSAFIY KONSEPTLARNI O'ZBEKISTON TARIXINING PEDAGOGIK MATERIALLARI BILAN UYG'UNLASHTIRISH	51-56
--	-------

G'ofurova Barnoxon

OLIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMNING LOYIHASI	57-59
---	-------

Yuldasheva Maftuna

O'QITUVCHILARNING KORREKTSION FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BAHOLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	60-65
--	-------

<i>Samandarova Nargiza</i> IQTISODCHI MUTAXASSIS TAYYORLASHDA TIL VA KASBIY FANLAR INTEGRATSIYASI MASALALARI	66-69
<i>Raxmanova Nigora</i> SHARQ UYG'ONISH PEDAGOGIKASINI ZAMONAVIY TA'LIM SIYOSATI VA STRATEGIYASIGA INTEGRATSIYA QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	70-75
<i>Kamolov Baxtiyor</i> EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA ASOSIDA TALABALARIDA EKOTURISTIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI	76-82
<i>Mavlonova Dildora</i> INGLIZ TILI DARSLARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI: TEXNOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA ILMIY-METODOLOGIK TAHLIL	83-85
<i>Tojiboyeva Shohistaxon</i> AXBOROT MUHITIDA BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI UCHUN TANQIDIY FIKRNI SHAKLLANTIRUVCHI ENG SAMARALI INTERFAOL METODLAR	86-89

OLIIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMNING LOYIHASI

G'ofurova Barnoxon Asadjon qizining

University of Business and Science katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: gofurova343@gmail.com

Tel: +998916723453

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar konseptual fikrlashini rivojlantirish mexanizmini loyihalash masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslanadi. Konseptual fikrlash talabalarning bilimlarni tizimlashtirish, tushunchalararo bog'lanishlarni aniqlash, muammoli vaziyatlarda asosli qaror qabul qilish hamda reflektiv tahlil yuritish kompetensiyalarini shakllantiruvchi intellektual faoliyat turi sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda konseptual fikrlashni rivojlantirish mexanizmini loyihalashning tarkibiy bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlari hamda metodik vositalari tizimlashtirildi. Natijada konseptual fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi integrativ pedagogik model va uning samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: konseptual fikrlash, oliy ta'lim, mexanizm, loyihalash, kompetensiya, refleksiya, metakognitiv yondashuv, integrativ model, muammoli ta'lim.

PROJECT OF A MECHANISM FOR DEVELOPING STUDENTS' CONCEPTUAL THINKING IN HIGHER EDUCATION

Gofurova Barnokhon Asadjon qizi

Senior Lecturer, PhD, University of Business and Science

Annotation. This article scientifically, theoretically, and practically substantiates the issue of designing a mechanism for developing students' conceptual thinking in higher education institutions. Conceptual thinking is interpreted as a type of intellectual activity that forms students' competencies in systematizing knowledge, identifying relationships between concepts, making well-grounded decisions in problem situations, and conducting reflective analysis. The study systematizes the structural stages, pedagogical conditions, and methodological tools for designing a mechanism to develop conceptual thinking. As a result, an integrative pedagogical model aimed at developing conceptual thinking and criteria for assessing its effectiveness were developed.

Key words: conceptual thinking, higher education, mechanism, design, competence, reflection, metacognitive approach, integrative model, problem-based learning.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i4/n12>

Oliy ta'lim tizimida zamonaviy kadrlar tayyorlash jarayonining samaradorligi talabalarning nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishi, balki ularni tahlil qilishi, qayta ishlashi, umumlashtirishi hamda amaliy vaziyatlarda yangicha yechimlar yaratishga qodir bo'lishi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim jarayonida talabalarning yuqori darajadagi intellektual faoliyatini rivojlantirish, xususan, konseptual fikrlashni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Konseptual fikrlash talabaning mavzuga oid asosiy tushunchalarni chuqur anglash, ularni tizimli tarzda bog'lash, nazariy bilimlarni real va muammoli vaziyatlarga tatbiq eta olish hamda konseptual xaritalar va modellardan foydalanib ilmiy xulosalarga kelish qobiliyatini ifodalaydi. Bunda talabaning ilmiy tafakkuri, reflektiv yondashuvi, mantiqiy fikrlashi hamda

metakognitiv nazorat mexanizmlari faol ishlaydi. Shuningdek, konseptual fikrlash ta'lim mazmunini "xotirada saqlash" darajasidan "anglash, tushuntirish, umumlashtirish va yaratuvchanlik" darajasiga ko'taruvchi intellektual jarayon sifatida e'tirof etiladi. Shu jihatdan, oliy ta'lim jarayonida talabalar konseptual fikrlashini rivojlantirish mexanizmini loyihalash dolzarb ilmiy-amaliy muammo bo'lib, mazkur yo'nalishda metodlar, didaktik texnologiyalar, pedagogik shart-sharoitlar hamda baholash tizimini yagona konseptual asosda integratsiyalash zaruratini taqozo etadi. Chunki konseptual fikrlashni rivojlantirish tasodifiy yoki epizodik faoliyat sifatida emas, balki aniq maqsad, mazmun va natijaga yo'naltirilgan tizimli mexanizm asosida tashkil etilgandagina kutilgan samaraga erishish mumkin bo'ladi.

Konseptual fikrlash oliy ta'lim jarayonida talabaning bilimlarni mazmunan chuqurlashtirish va ularni ilmiy asosda boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur fikrlash turi talabalarga: bilimlarni tizimlashtirish va ierarxiyalash, tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash, muammoli vaziyatlarda yechim yaratish, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, o'z fikrlash jarayonini refleksiya asosida nazorat qilish imkonini beradi. Shu sababli konseptual fikrlash oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning muhim natijaviy ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaraladi.

Talabalarda konseptual fikrlashni shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun mexanizmni aniq tarkibiy qismlar asosida loyihalash zarur. Taklif etilayotgan mexanizm quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Maqsadli komponent – talabalarda konseptual fikrlash kompetensiyasini shakllantirish va uni izchil rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Mazmuniy komponent – konseptual fikrlashni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlar tizimini qamrab oladi. Bunda asosiy konseptlar (tushuncha, kategoriya, prinsip, model), tafakkur amallari (tahlil-sintez, umumlashtirish, analogiya) hamda fanlararo integratsiya asosiy mazmuniy yo'nalish sifatida belgilanadi.

Faoliyatli-texnologik komponent – talabalarining konseptual fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim metodlari va texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonda muammoli ta'lim, loyihaviy ta'lim, keys-stadi, konseptual xarita tuzish, munozara va debatlar, refleksiv topshiriqlar (esse, "fikrlar kundaligi", SWOT tahlil) samarali vositalar sifatida qo'llanadi.

Tashkiliy-pedagogik komponent – ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Unda hamkorlikda o'qitish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash va kreativ muhit yaratish ustuvor shartlar sifatida namoyon bo'ladi.

Diagnostik-baholash komponenti – konseptual fikrlashning rivojlanganlik darajasini aniqlash va monitoringini yuritishga xizmat qiladi. Bu komponent doirasida quyidagi mezonlar belgilandi:

- kognitiv mezon (tushunchalarni anglash, ilmiy izchillik);
- operatsion mezon (tahlil, sintez, konseptual xarita tuzish);
- refleksiv mezon (o'z fikrini baholash, xatoni anglash);
- ijodiy mezon (yangicha yondashuv, original yechim).

Konseptual fikrlashni rivojlantirish mexanizmi ta'lim amaliyotida tizimli va ketma-ket tarzda amalga oshirilishi uchun u bosqichli model sifatida loyihalashtirildi. Taklif etilayotgan mexanizm 3 bosqich asosida tashkil etiladi:

1-bosqich: Diagnostik-motivatsion bosqich. Ushbu bosqichda talabanning konseptual fikrlash darajasi aniqlanadi, o'quv motivatsiyasi hamda maqsad yo'nalishi shakllantiriladi, konseptual fikrlashning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati asoslab beriladi.

2-bosqich: Rivojlantiruvchi-amaliy bosqich. Bu bosqich mexanizmning markaziy qismi bo'lib, unda muammoli vaziyatlar asosida talabanning fikrlashi faollashtiriladi, konseptual xarita tuzish, keys yechish, loyiha ishlab chiqish kabi faoliyat turlari amalga oshiriladi. O'qituvchi bu jarayonda bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi fasilitator rolini bajaradi.

3-bosqich: Reflektiv-natijaviy bosqich. Mazkur bosqichda talabalarning konseptual o'sishi monitoring qilinadi, o'z-o'zini baholash va jamoaviy tahlil yo'lga qo'yiladi, portfoliolar asosida natijalar mustahkamlanadi hamda rivojlanish indikatorlari bo'yicha yakuniy diagnostika o'tkaziladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, konseptual fikrlashni rivojlantirish mexanizmini samarali joriy etishda muayyan pedagogik shartlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jumladan, muammoli va tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim muhiti yaratish, fanlararo integratsiya hamda real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish, konseptual xarita va refleksiya texnologiyalarini muntazam qo'llash, shuningdek, baholashning diagnostik va rivojlantiruvchi shakllarini uyg'unlashtirish mexanizmning amaliy samaradorligini oshiradi. Natijada talaba bilimlarni shunchaki "eslab qolish" emas, balki ularni strukturaviy qayta ishlash orqali ilmiy xulosalar chiqarishga yo'naltirilgan "ilmiy dunyoqarash"ni shakllantiradi.

Oliy ta'lim jarayonida talabalarning konseptual fikrlashini rivojlantirish mexanizmini loyihalash ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Mazkur mexanizmning maqsadli, mazmuniy, faoliyatli-texnologik, tashkiliy-pedagogik hamda diagnostik-baholash komponentlari o'zaro integratsiyada qo'llanilganda talabalarning yuqori darajadagi tafakkur faoliyati, ilmiy tahlil ko'nikmalari va reflektiv kompetensiyasi izchil rivojlanadi. Taklif etilgan bosqichli model esa oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni amaliy jihatdan ta'minlashga, talabalarning konseptual fikrlashini maqsadli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech' (Fikrlash va nutq). Moskva: Labirint, 1999. 352 b.
2. Bruner J.S. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. 97 p.
3. Ausubel D.P. Educational Psychology: A Cognitive View. New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968. 685 p.
4. Dewey J. How We Think. Boston: D.C. Heath and Company, 1910. 224 p.
5. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London–New York: Routledge, 2009. 378 p.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, fevral

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 4-son (fevral, 2026-yil). – 90 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-fevral

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.